METAFORA MA’NO KO‘CHISH TURINING TILSHUNOSLIKDAGI ILMIY AHAMIYATI

Mahfuza Nishonboyeva Dilshodbek qizi,
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti,
Farg‘ona, O‘zbekiston
nishonboyevamahfuza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada metaforaning tilshunoslik fanidagi o‘rni va nazariy ahamiyati tahlil etiladi. Unda metaforaning ma’no ko‘chish vositasi sifatida fe’l, sifat hamda boshqa so‘z turkumlarida ifodalanishi turli misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, metaforalarning inson nomlari, tabiat hodisalari, hayvonlar va o‘simliklar bilan bog‘liq holda qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Antik davr mutafakkirlarining metafora haqidagi qarashlari ham tahlil qilinib, uning nutqning badiiyligi, ta’sirchanligi va estetik qiymatini oshirishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *metafora, ma’no ko‘chishi, tilshunoslik, badiiy nutq, ekspressivlik, semantika, obrazlilik, ko‘chma ma’no, nominatsiya, baholovchi metafora, til va tafakkur.*

KIRISH

Kundalik hayotimizda “Bahor elchisi qaldirg‘ochlar yoki itlar inson do‘stlaridir” kabi nutq birliklariga ko‘p duch kelamiz. Agar ushbu gaplarni to‘g‘ridan to‘gri tushunsak, hayvonlar insonlarning do‘sti, birodari, sirdoshi qayg‘udoshi yoki qaldirg‘ochlar bahor kelganida habr berib turuvchi deb deb tushuniladi. Aslida esa itlar egasiga vafodor, qaldirg‘ochlar esa issiqni ob-havoni eng birinchi bo‘lib sezuvchilar ekanligini anglatmoqda. Yuqorida keltirilgan misollarda metafora ma’no ko‘chish turini keltirilgan.

Metafora hodisasiga Kambridj lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: “asosan adabiyotda qo‘llaniladigan hodisa hisoblanib, narsa va hodisalarni o‘zaro o‘xshash xususiyatlari asosida ma’no ko‘chishidir”

Oxford lug‘atida esa “metafora bu biror bir narsa yoki shaxsni noodatiy usullar orqali boshqa narsa va shaxsning o‘xshashlik xususiyatlari asosida ma’no ko‘chishidir”.

Collins lug‘atiga ko‘ra, o‘xshashlik xususiyati mavjud ikki tushunchani xayoliy usullar orqali tasvirlash metaforadir. Metafora tinglovchiga ta’sir qilish xususiyatiga ham ega ekanligi bilan boshqa ko‘chim turlaridan farq qiladi.

Inson o‘z fikrlarini tinglovchiga bayon etishda barcha til birliklaridan foydalanadi. Bunday holatda qo‘llayotgan birliklarimiz nafaqat denotativlik balki konototivlik vazifasida ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ko‘chma ma’noda ishlatilayotgan gaplarda ko‘chma ma’no emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik kasb etadi. Ayniqsa ko‘chim turlarida metaforada bunday xususiyat ko‘proq namoyon bo‘ladi. U narsa yoki turli tushunchalar o‘rtasida ma’no o‘xshahsligi asosida ma’no ko‘chishidir.

Masalan: muvaffaqiyat cho‘qqisi, yurtimiz yo‘lboshchisi, soy etagi.... Qozonning qulog‘i birikmasida quloq so‘zining ma’nosi odam qulog‘i tashqi yoki shakliy o‘xshashligi asosida vujudga kelgan.

Metaforalarni o‘rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning aloxida usuli va vositasi sifatida ko‘rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron) ga taalluqli g‘oyadir.[1]

Aynan shu davrda metaforaning o‘rganilishiga katta ahamiyat berildi: metaforaning ismlar (umuman so‘zlar) qatoridagi o‘rnini aniqlash, metaforaning “ noodatiy” fenomen tabiatini tekshirish singari masalalar shular qatoridandir. [2]

Kvintilian birinchi bor metafora orqali deyarli barcha buyumlar haqidagi ma`lumotlar aniq hamda ravshan yetkazish mumkinligini payqadi. U metaforaning vazifaviy mezoni o‘rnida metaforaning qo‘llanish maqsadlarini ko‘rgan. Kvintilian, “Ism yoki fe`l o‘z o‘rnidan u yetishmayotgan yoxud undan afzal bo‘lmagan nomlar o‘rniga ko‘chiriladi”[3] deb hisoblaydi.

Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik(ko‘chim usuli) turli asosda bo‘lishi mumkin:

1. Ikki predmet o‘rtasida shakliy o‘xshashliklar tashqi ko‘rinish asosida: odamning og‘zi (o‘z ma’nosida) - tandirning og‘zi (ko‘chma ma’noda) odamning qulog‘i (o‘z ma’nosida)- qozonning qulog‘i (ko‘chma ma’noda).

2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo‘yicha ma’no ko‘chishi: itning dumi (o‘z ma’nosida) samolyotning dumi (ko‘chma ma’noda).

Nutqda metaforalardan keng foydalanish fikrlarimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Metafora narsa, belgi, harakat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikka asoslanadi:

Narsa: Etag
Ko‘ylakning etagi (o‘z ma’no)
Tog‘ning etagi (ko‘chma ma’no)
Og‘iz
Insonning og‘zi (o‘z ma’no)
Tandirning og‘zi (ko‘chma ma’no)
Belgi: Shirin
Shirin tort (o‘z ma’no)
Shirin tush (ko‘chma ma’no)
Shirin hayot (ko‘chma ma’no)
Toza
Toza kiyim (o‘z ma’no)
Toza qalb (ko‘chma ma’no)
Harakat: Uzoqlashib ketmoq
U qo‘rg‘ondan uzoqlashgach, daryo bo‘yida to‘xtashga qaror qildi. (o‘z ma’no)
Ali qarindoshlaridan uzoqlashib ketganiga yillar bo‘lgan edi. (ko‘chma ma’no)

[1] Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
[2] МАХМАРАИМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА “ЎЗБЕК ТИЛИ МЕТАФОРАЛАРИНИНГ НТРОПОЦЕНТРИК ТАДҚИҚИ” ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ (DSc) ДИССЕРТАЦИЯСИ АВТОРЕФЕРАТИ, Самарқанд – 2020,15-b.
[3] Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6)

Tirnamoq
Mushugim qo‘limni tirnab oldi. (o‘z ma’no)
Mungli kuy qalbimni tirnar edi. (ko‘chma ma’no)
Ushbu ko‘chim turida ma’no turlicha ko‘chadi:

➢ *Inson tana a`zolari ko‘chadi:*

Yer yuzi, kitobning beti, shishaning og‘zi, choynakning burni, dutorning qulog‘i yoki ko‘chaning boshidan Alisher ko‘rindi. Yuqorida keltirilgan metaforalar asl ma’nosida inson tana a’zolaridir, ammo ularning qayerda joylashganligi, yoki shakliy o‘xshashligiga ko‘ra ma’no ko‘chgan. Bundan tashqari metafora-sinekdoxa asosida ham ma’no ko‘chishi mumkin. Masalan,
Otam yetimlarning boshini siladi (A. Qahhor)

Boshini silamoq- g‘amxo‘rlik qilmoq, yordam bermoq, sahovatpeshalik qilmoq kabi ma’nolarda ishlatilmoqda, bosh so‘zi esa butun bir insonga nisbatan ishlatilmoqda.

➢ *Inson kiyim qismlari ko‘chadi:*

Tog‘ning etagi, daryoning yoqasi, eshikning tugmasi. Joylashuv o‘rniga ko‘ra etag ko‘ylakning oldi qism, yoqa deyilgan esa ikki tarafda joylashganligi, tugma eshikning ham kiyimning ham oldida joylashgan hamda ikklasi ham asosan yumaloq shaklga ega.

➢ *Qush, parranda, hayvon a`zolari nomi ko‘chadi:*

Terma jamoa hujumchisi chap qanotdan hujum uyushtirdi. O‘glimning varragining dumi ko‘kda chiroyli tebranardi. Joylashuv o‘rniga ko‘ra qanot ikki yonda, dum esa orqa tarafdadir, shuning uchun ma’no ko‘chimi metafora yuzaga kelgan.

XULOSA

Metafora qadim zamonlardan beri tilshunoslar e’tiborini tortib kelayotgan muhim tushunchalardan biridir. Antik davr olimlari, xususan Aristotel va Sitseron, metaforani borliqni idrok etishning o‘ziga xos yo‘li deb hisoblaganlar. Nutqda metaforalardan foydalanish fikrni yanada ifodali va jozibali qiladi hamda so‘zlovchining badiiy didi va estetik imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
2. МАХМАРАИМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА “ЎЗБЕК ТИЛИ МЕТАФОРАЛАРИНИНГ НТРОПОЦЕНТРИК ТАДҚИҚИ” ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ (DSc) ДИССЕРТАЦИЯСИ АВТОРЕФЕРАТИ, Самарқанд – 2020,15-b.
3. Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6)
4. Erkaboyeva.N., O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami.-T.; “LRSSON PRESS”, 2017,87-88 b.
5. Прокопчук О.Г. Развитие представлений о метафоре в античной риторической традиции. (Аристотель и Квинтилиан). Веснік Беларускага дзяржаўнага універсітэта. Серыя 4, Філалогія. Журналістыка. Педагогіка. -2009. - N 2. - С. 75-78.